




- 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14 15 16 17 18 19 20 21 22 23 24 25 26 27 28 29 30  
31 32 33 34 35 36 37 38 39 40



1. Ushbu rasmda daryo vodiysining ko'ndalang kesimi aks ettirilgan. Rasmda ko'rsatilga harflardan qaysi biri daryo o'zanini bildiradi?

- D
- C
- B
- A

Ushbu rasmda daryo vodiysining ko'ndalang kesimi aks ettirilgan. Rasmda ko'rsatilga harflardan qaysi

◀ Oldingi savol   Keyingi savol ▶


2. №10 Qiyinlik darajasi: 3 Termiz shahri  $37,2^{\circ}$  shimoliy kenglikda joylashgan bo'lsa, shahardan janubiy qutbgacha bo'lgan masofani gradus va kilometrlarda aniqlang.

- $127,2^{\circ}$  va 14131,92 km
- $172,2^{\circ}$  va 14531,92 km
- $172,2^{\circ}$  va 14131,82 km
- $127,2^{\circ}$  va 15311,92 km

3. O'rta Osiyo daryolari va ularga qurilgan suv omborlar mos ravishda ko'rsatilgan javobni belgilang.

Nº	Daryolar		Suv omborlar
1	Ili	a	Qayroqqum
2	Norin	b	To'xtag'ul
3	Zarafshon	c	Qopchig'ay
4	Vaxsh	d	Tuyabo'g'iz
5	Sirdaryo	e	Norak
6	Ohangaron	f	Quyimozor

- 1-c, 2- b, 3-d, 4-e, 5-a, 6-f
- 1-c, 2-e, 3-f, 4-b, 5-a, 6-d
- 1-a, 2-b, 3-d, 4-e, 5-c, 6-f
- 1-c, 2-b, 3-f, 4-e, 5-a, 6-d



4. Ushbu rasmda Ruminiya davlatining o'rni qaysi raqam bilan ko'rsatilgan?

- 6
- 5
- 4
- 7



5. Yuqorida berilgan O'zbekistonning neft-gazli mintaqalari xaritasidagi A harfi o'rnida joylashgan mintaqasi nomini toping.

- Janubiy-g'arbiy Hisor
- Ustyurt
- Buxoro-Xiva
- Shimoliy Hisor

6. Quyidagi berilgan tog' cho'qqilarini pastdan yuqoriga ortib borish tartibida joylashtiring.

- 1.Mitchel
- 2.Kossyushko
- 3.Brus
- 4.Zil
- 5.Monblan

3, 4, 1, 2, 5.

2, 4, 5, 3, 1.

1, 2, 3, 5, 4.

5, 1, 2, 4, 3.

7. Quruqlikda 8 ta mamlakat bilan chegaradosh, eng uzun chegaralari Germaniya, Italiya, Ispaniya mamlakatlari bilan o'tgan, mamlakat unitar mamlakat bo'lib 18 ta regionga bo'linadi"

Yuqorida berilgan tarif qaysi mamlakat uchun xos ekanligini aniqlang.

Polsha

Fransiya

Rossiya

Belgiya

8. Bali, Koro, Savu dengizlari qaysi okeanda joylashganligini toping?

Shimoliy Muz okeani

Atlantika okeani

Tinch okeani

Hind okeani

9. Ildizmevalilardan kartoshka yetishtirishda yetakchi bo'lgan mamlakatlar berilgan qatorni belgilang.

AQSH, Avstraliya, Yaponiya

Rossiya, Kuba, Ukraina

Xitoy, Hindiston, Rossiya

Braziliya, Polsha, Avstraliya

10. Lotin Amerikasi mamlakatlarining asosiy qismi qaysi tillarda so'zlashadi?

Ispan va Portugal

Nemis va Ispan

Ingliz va Ispan

Portugal va Fransuz

11. Qalinligi ekvatorda 17 km qutblarda 8-9 km bo'lgan qatlam berilgan qatorni belgilang?

Troposfera

Termosfera

Mezosfera


Stratosfera

12. Mamlakatimizdagi foydali qazilma konlarining umumiyligi soni nechtani tashkil qiladi?

- 4500 ta
- 1700 ta
- 3700 ta
- 2700 ta

13. Monitoring tashkil qilishni qaysi bosqichida atrof-muhitning ifloslanishi uning inson salomatligiga ta'siri nuqtayi nazaridan kuzatiladi. va odamlarning kasallanishi, o'lim, tug'ilish, uzoq umr ko'rish va boshqa ma'lumotlardan foydalilanildi?

- Geografik ekspertiza
- Biosfera monitoring
- Bioekologik monitoring
- Geoekologik monitoring



Yuqoridagi yerning quyoshga nisbatan turgan holatidan kelib chiqib, shimoliy va janubiy yarimsharning katta qismida qaysi fasl ekanligini aniqlang?

- Shimoliy yarimsharda yoz, Janubiy yarimsharda qish
- Shimoliy yarimsharda qish, Janubiy yarimsharda yoz
- Shimoliy yarimsharda kuz, Janubiy yarimsharda yoz
- Shimoliy yarimsharda qish, Janubiy yarimsharda kuz

15. Necha balli zilzila sodir bo'lganda g'isht, betondan ishlangan uylar butunlay yoki qisman buziladi, yerosti quvurlari uziladi. Qoyalar qulab, tepaliklar suriladi, yerdagi yoriqlarning eni 10 cm gacha yetadi.

- 10
- 12
- 8
- 9

16. O'zbekiston Respublikasi qaysi mamlakat bilan 1721 km masofadagi chegaraga ega hisoblanadi?

- Turkmaniston
- Afg'oniston
- Qirg'izistonga
- Tojikiston

17. Quyidagi berilgan mamlakatlardan yarim orollarda joylashganlarini belgilang

- 1.Koreya Respublikasi
- 2.Shri-Lanka
- 3.Misr
- 4.Vyetnam
- 5.Norvegiya
- 6.Polsha

2, 3, 5.

3, 4, 6.

1, 3, 6.

1, 4, 5.

18. Italiya mamlakati aholisi 60,6 mln kishi, maydoni esa 301,3 ming km<sup>2</sup> bo'lsa mamlakat aholi zichiligini hisoblang.

201 kishi

185 kishi

250 kishi

300 kishi

19. Quyidagi tarif qaysi tabiy geografik o'lka uchun xos ekanligini toping.


O'lkaning markazi va janubiy qismidan Yer po'stining faol Alp-Himolay seysmik mintaqasi o'tadi. O'lkada keksa, lekin yoshargan tog'lar bilan birga eng yosh tog'lar ham bor, o'lkaning eng past nuqtasi To'rfon botig'i 154m hisoblanadi"

Janubiy Osiyo

Sharqiy Osiyo

Markaziy Osiyo

O'rta Osiyo



Yuqorida yozuvsız xaritada berilgan A harfi o'rnidagi joylashgan obyekt nomini toping

Sariqamish ko'li

Jiltrbos ko'li

Damko'l

Tuzkon ko'li

21. Ko'proq gips, mergel, ohaktoshlardan tashkil topganligi tufayli karst jarayoni rivojlangan Chaqikalon tog'ida joylashgan obyekt berilgan qatorni belgilang.

Kili g'ori

Hazrat Sulton cho'qqisi

Mingbuloq cho'qqisi

Amur Temur darvozasi

22. Paleozoy erasining birinchi yarmida sodir bo'lgan kaledon tog' hosil bo'lishi bosqichida qaysi tog'lar ko'tarilgan

- Qozog'iston past tog'larining g'arbiy qismi va Shimoliy Tyanshan
- Markaziy Qizilqum past tog'lari va Qozog'iston past tog'larining sharqiy qismi
- Safedko'h, Hindukush, Bandi Turkiston
- Kopetdog', Bolxon, Paropamiz



23. Yuqorida berilgan rasmdagi 2 raqami ostida joylashgan mamlakat qaysi ekanligini toping.

- Belarus
- Moldova
- Ukraina
- Bolgariya

24. Quruqlik ichkarisiga tomon okeanlardan uzoqlashgan sari iqlim xususiyatlarining o'zgarishi hisobiga tabiat komponentlari va geotizimlarning o'zgarib borishi nima deb ataladi.

- Balandlik mintaqlanishi
- Azonallik qonuniyati
- Sektorlik
- Ritmiklik

25. Andijon shahridagi Uz-SeMyung KO qo'shma korxonasi Asakadagi avtomobil zavodiga qanday turdag'i ehtiyoj qismlar yetkazib beradi?

- Avtomobil shinalari
- Avtomobil o'rindiqlari
- Avtomobil oynalari
- Yoqilg'i baklari

26. Xaritada ikki shahar orasidagi masofa 50 km bo'lsa, masshtabi 1:2 000 000 bo'lgan xaritada mazkur shaharlar orasidagi masofa necha cm bo'ladi?

- 4 cm
- 2,5 cm
- 25 cm
- 20 cm

27. 1 m<sup>3</sup> havoda 3 g namlik mavjud havoning nisbiy namligi 10 foiz bo'lsa havo haroratini aniqlang.

- 30 °C
- 20 °C
- 10 °C
- 10 °C

28. Shimoliy va Janubiy yarimsharlarda 66, 5° kengliklardan o'tkazilgan parallelar. Bu parallelarda yozda 1 sutka Quyosh botmaydi, qishda esa 1 sutka Quyosh chiqmaydi."

Yuqorida berilgan tarif uchun xos bo'lgan javobni belgilang.

- Qutbiy doiralar
- Tropik chiziqlar
- Meridianlar
- Ekvator

29. Qaysi daryoning uzunligi 397 km bo'lib, loyqaligi Xo'jakent yonida 0,275 kg/m<sup>3</sup> ni tashkil qiladi?

- Chirchiq
- Zarafshon
- Sirdaryo
- Ohangaron

30. O'zbekiston maydoning kattaligi bo'yicha Yevrosiyo materigida qaysi o'rinni egallaydi?

- 15
- 38
- 19
- 55

31. Qumli cho'llarning katta qismida qumda o'suvchi daraxt berilgan javobni belgilang.

- Turong'il
- Jing'il
- Oq saksovul
- Tuyatovon

32. Quyidagi javoblardan eng yosh bo'lganini belgilang.

- Yadro
- Mantiya
- Biosfera
- Yer po'sti


33. O'zbekistonning eng g'arbiy nuqtasi  $56^{\circ}$ sharqiy uzoqlikda hamda sharqiy nuqtasi taqriban  $73^{\circ}$ sharqiy uzoqlikda joylashgan bo'lsa, bu ikki hudud orasidagi vaqt farqini toping

- 1 soat 48 daqiqa
- 1 soat 25 daqiqa
- 2 soat 15 daqiqa
- 1 soat 8 daqiqa

34. Tonga cho'kmasining chuqurligi to'g'ri berilgan qatorni belgilang?

- 10047 m
- 10882 m
- 10022 m
- 9783 m

35.



Yuqorida berilgan chizmadagi A gorizontalning balandligi 1250 m, gorizontallar 250m masofada o'tkazilgan bo'lsa C nuqtaning A nuqtadan necha mm Hg bosim farq qilishini hisoblang.

- 50 mm Hg
- 75 mm Hg
- 750 mm Hg
- 100 mm Hg

36. Ishlab chiqarishning asosan bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan tashkiliy shakli nima deb ataladi?

- Ixtisoslashuv
- Ishlab chiqarishning markazlashivi
- Kooperativlashuv
- Majmua

37. O'zbekiston aholisining 9,6 foiz qismi istiqomat qiladigan Qashqadaryo viloyati Respublikadagi elektroenergiyaning 1/10 qismini yetkazib bersa viloyatning elektroenergetika sanoatiga ixtisoslashganlik darajasini aniqlang.

- 1.8
- 0.85
- 1.04
- 0.96

38. Mahalliy dinlar berilgan qatorni belgilang.

- Sintoizm, Sikxizm, Konfutsiylik,
- Iudaizm, Buddizm, Xristianlik
- Xristianlik, Buddizm, Induizm
- Konfutsiylik, Induizm, Buddizm

39. Quyidagi berilgan hududlardan ingliz tadqiqotchisi D.Livingston o'rgangan hududlar berilgan qatorni belgilang.

- 1.Zambezi daryosidagi Viktoriya sharsharasi
- 2.Tanganika ko'li
- 3.Niger daryosi
- 4.Zanzibar orollari
- 5.Viktoriya ko'li
- 6. Nyasa ko'li

- 1, 3, 5
- 4, 5, 6
- 1, 2, 6
- 2, 3, 4

40. Fayzabod mahallasida yil davomida 125 nafar chaqaloq dunyoga keldi, hamda 35 nafar o'lim qayd etildi, mahallaga xorijdan 180 nafar kishi doimiy yashash maqsadida ko'chib kelgan bo'lsa, mahalladan yil davomida 89 nafar kishi ishlash maqsadida xorijga ko'chib ketdi. Fayzabod mahallasining yil davomidagi mexanik ko'payishini hisoblang.

- 90 kishi
- 132 kishi
- 91 kishi
- 79 kishi